

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI MANBALARI VA ULARNI
SHAKLLANTIRISH TARTIBI

Norqulova Shahzoda

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat moliyasini shakllantirilishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadigan davlat byudjeti hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantiradigan manbalari batafsil ko`rsatib o`tilgan. Bundan tashqari, davlat byudjetining samarali tashlik etilishi, nafaqat, mamlakatning makroiqtisodiy tomonlama rivojlanishi, balki xo`jalik sub`ektlari iqtisodiyotiga ham ta`sir ko`rsatishi haqida atroflicha mulohaza qilingan.

Kalit so`zlar: Davlat byudjeti, moliyalashtirish, aholidan olinadigan turli xildagi soliqlar, imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusidan tushgan tushumlar, dividendlar, Markaziy bank, mahalliy byudjet daromadlari.

**ИСТОЧНИКИ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА И
ПОРЯДОК ИХ ФОРМИРОВАНИЯ**

Аннотация: В данной статье подробно описаны источники государственного бюджета и доходы государственного бюджета, которые имеют большое значение в формировании и развитии государственных финансов. Кроме того, подробно обсуждалось, что эффективное распоряжение государственным бюджетом влияет не только на макроэкономическое развитие страны, но и на экономику хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: Государственный бюджет, финансирование, различные налоги, взимаемые с населения, поступления от подписного бонуса и бонуса коммерческого обнаружения, дивиденды, Центральный банк, доходы местного бюджета.

**SOURCES OF STATE BUDGET INCOME AND PROCEDURE FOR
THEIR FORMATION**

Abstract: This article describes in detail the sources of the state budget and state budget revenues, which are of great importance in the formation and development of state finances. In addition, it was discussed in detail that the effective disposal of the state budget affects not only the macroeconomic development of the country, but also the economy of economic entities.

Key words: State budget, financing, various taxes collected from the population, receipts from signature bonus and commercial discovery bonus, dividends, Central Bank, local budget revenues.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o`z vaqtida va to`liq ijobiy hal etish uchun, albatta, ma`lum moliyaviy asos mavjud bo`lishi kerak. Chunki, aynan, moliyaviy asosning markaziy bo`g`inini davlat byudjeti tashkil etadi. Har qaysi byudjetni shakllantirishdagi asosiy jarayon bu uning daromadlar manbalarini aniqlash hisoblanadi. Shuni ta`kidlash joizki, dunyoning aksariyat davlatlarida davlat byudjetining asosiy daromad manbai sifatida soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarga tayaniladi va davlat byudjetining daromad manbalari qonun bilan belgilab qo`yiladi.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi byudjet tizimidagi davlat moliyasini yaxshilash va rivojlantirish, davlat byudjeti daromadlarining barqarorligi, ularni shakllantirish manbalari mukammalligi va butligini ta`minlash kabi amalga oshirilayotgan islohotlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat byudjeti tizimidagi moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish pirovardida byudjet ijrosini ijobiy natijaga erishishida ham muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Agar davlat byudjeti to`g`ri va oqilona tashkil etilsa, bir tomondan, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta`minlashga xizmat qiladi, boshqa tomondan esa, xo`jalik sub`ektlarining iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama ta`sir etish orqali mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi. Bu holat, o`z navbatida mamlakat moliya tizimi barqarorligida muhim o`rin tutadi. Shu boisdan, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish va byudjet daromadlari barqarorligini ta`minlash dolzarb masalalardan biridir. O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjetining daromad manbalari Byudjet kodeksida aniq belgilab qo`yilgan va ularga quyidagi daromad manbalari kiradi:

Davlat byudjeti daromadlari:

Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar;

Davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan keladigan daromadlar;

Meros, hadya huquqi bo`yicha davlat mulkiga o`tgan pul mablag`lari;

Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan, qaytarilmaydigan pul tushumlari;

Rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to`lash hisobidan to`lovlar;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari manbalarini esa quyidagilar tashkil etadi:

1. Umumdavlat soliqlari, shu jumladan:
yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
yagona soliq to'lovi;
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
qo'shilgan qiymat solig'i;
aksiz solig'i;
yerdan foydalanganlik uchun soliq to'lovi;
2. Bojxona bojlari;
3. Qo'shimcha foyda solig'i;
4. Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;
5. Boshqa daromadlar;

Boshqa daromadlarga asosan, imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonunda belgilab qo'yilganlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlar ya'ni daromadlar, mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qaysi davlatning Davlat byudjeti tushunchasi mohiyati uning markazlashgan pul fondi bilan bog'liq bo'ladi. Davlatlarning byudjet shaklidagi markazlashgan pul fondlari va byudjet tizimida davlat byudjeti katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich. Moliya va soliqlar. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020.
2. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/835095/5d08d6d1acda4.pdf>. Tursunmurodova. 2023.

3. „Definition of Taxes“. OECD (1996-yil 19-aprel). Qaraldi: 2022-yil 23-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni.

